

YOZMA NUTQ NUQSONI BO'LGAN BOLALAR ESHITISH DIQQATINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

Mamatova Aziza Bo'riyevna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti — Maxsus pedagogika va
inklyuziv ta'lim fakulteti Logopediya kafedrası PhD., dotsent vazifasini bajaruvchi*

Odiljonova Malohat Kamoliddin qizi

408-guruh Talabasi odiljonovamalohat@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolalarda ko'p uchraydigan yozma nutq kamchiligining kelib chiqishi, shakllari, sabablari, hamda ushbu bolalarda eshitish diqqatining holati va uning korreksiyasi haqida yoritib beriladi.*

Kalit so'zlar: *Disgrafiya, disleksiya, agrafiya, fonematik idrok, fonema.*

Disgrafiya (grekchadan “dis” - buzilish, “grapho” – yozaman) – bu yozuvning qisman buzilishi bo'lib, u barqaror, o'ziga xos xatolarning mavjudligi bilan tavsiflanadi. Agrafiya (grekchadan “a” – yo'q, “grapho” – yozaman) – butunlay yozma nutqni egallay olmaslik, uning butunlay yo'qligi. R. Ye. Levina ishlarida shunday ko'rsatiladiki, bunday spetsifik xatolar deb harflarning almashib ketishi va tushirib qoldirilishi, so'zlarning ajratib yozilishi, shuningdek so'zlarni almashtirish, so'zlar-ning grammatik qo'shimchalarini noto'g'ri qo'llash, konstruksiyalarni tuzishda xa-tolar va boshqa “ko'plab xatolar, ular nutqning leksik-grammatik tizimining shaklla-nishidagi bo'shliqlarni sezilarli darajada aks ettiradi”, deb hisoblanadi.

Yozuv va o'qish buzilishlari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan bir necha asrlar davomida sinchkovlik bilan o'rganilgan. Ushbu olimlar orasida: A. Kussmaul, F. Bachman, V. Morgan (XIX asr), F. Varburg, P. Rashburg, O. Orton (XX asr), R. A. Tkachev, S. S. Mnuxin, F. A. Rau, M. Ye. Xvatsev, R. M. Boskis, R. Ye. Levina, O. A. Tokareva, R. I. Shuifer, L. F. Spirova, N. A. Nikashina, G. A. Kashe, A. V. Yastrebova, T. P. Bessonova va boshqalar (XX asr).

Zamonaviy fan sohasida yozish va o'qish buzilishlarini o'rganishga eng muhim hissa qo'shgan olimlar — R. I. Lalaeva, G. V. Chirkina, L. G. Paramonova, A. N. Kornev, A. V. Yastrebova, T. P. Bessonova, I. N. Sadovnikova, L. N. Yefimenkova. So'nggi o'n yilliklarda esa bu sohada M. N. Rusetskaya, O. B. Inshakova, Ye. A. Loginova, I. A. Prishchepova, O. I. Azova va boshqalar tadqiqot olib borishmoqda. Disgrafiya va disleksiya olimlar tomonidan nutq buzilishlarining alohida turlari sifatida talqin etiladi, biroq ular ko'p jihatdan o'xshash sabablarga ega bo'lib, ko'pincha bir-biri bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. R. Ye. Levina ta'kidlaganidek, o'qish va yozishdagi buzilishlarning asosi — fonematik tizimning yetarlicha shakllanmaganligidir.

Agar bola fonematik tasavvurlarni hosil qilishda qiynalsa, u holda grafema (harf) haqidagi tasavvurlar ham, shunga mos ravishda til tahlili va sintezi turlari ham sekin shakllanadi (B. G. Anan'yev, R. Ye. Levina, L. F. Spirova). Shu bilan birga, yozish va

o'qishdagi buzilishlar tildagi leksik-grammatik tizimning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan ham bog'liq bo'lishi mumkin, bu esa so'zlarning almashib ketishi, ularning grammatik jihatdan noto'g'ri shakllanishi, gap tuzishda qiyinchiliklar orqali namoyon bo'ladi. Yozish va o'qishdagi buzilishlarni aniqlash va differensial diagnostika logoped o'qituvchi tomonidan maktab yoshidagi bolalar orasida, odatda ikkinchi sinf o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab amalga oshiriladi. Biroq birinchi sinf o'quvchilari orasida ham yozma nutqni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga ega bo'lgan bolalar aniqlanadi. Bu bolaning yozuv va o'qishni o'zlashtirish imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lgan ontogenetik omillar hamda boshlang'ich sinf o'quvchilariga qo'yiladigan nutqiy va til ko'nikmalariga oid talablar bilan izohlanadi.

Ma'lumki, yozuv va o'qish jarayonlarining normal shakllanishi uchun bir nechta omillar guruhi zarur:

- Anatomo-fiziologik omillar — masalan, barcha analizator tizimlarining yetarlicha rivojlanganligi, motor funksiyalar, eshituv-ko'rish-motor koordinatsiyasining shakllanganligi;
- Psixologik omillar — yuqori psixik funksiyalarning yetarli darajada shakllanganligi, bolaning yangi nutq faoliyati turini egallashga psixologik tayyorgarligi;
- Ijtimoiy-muhit omillari — bolaning oilada va jamiyatda qulay muhitda bo'lishi, ijtimoiy yetukligi, moslashuv mexanizmlarining holati va boshqalar.

Bundan tashqari, yozma nutqni to'liq o'zlashtirish uchun bolaning og'zaki nutqni (fonetik va leksik-grammatik jihatdan) normativ darajada bilishi hamda til tahlili va sintezining asosiy operatsiyalarini egallagan bo'lishi, ya'ni lingvistik tayyorgarligi zarur. So'zning tovush shaklini uning ma'nosi bilan bog'lash o'qilgan matnni tushunishni ta'minlaydi. O'qishning shakllanishida quyidagi bosqichlar ajratiladi (T. G. Egorov, R. I. Lalaeva va boshqalar):

- Tovush-harf mosliklarini o'zlashtirish,
- Bo'g'inlab o'qish,
- Sintetik o'qish usullarining shakllanishi,
- Avtomatlashtirilgan sintetik o'qish.

Yozuvning maxsus operatsiyalari sifatida quyidagilar ko'rsatiladi (A. R. Luriya, R. I. Lalaeva):

- Yozilishi kerak bo'lgan so'zning tovush tarkibini tahlil qilish;
- Eshirilgan tovushlarni aniqlashtirish va ularni aniq fonemalar ko'rinishiga keltirish;
- Ajratilgan fonemalarni yoki ularning komplekslarini grafemalarga (ya'ni harflarga mos vizual obrazlarga) o'tkazish;
- Motor yozuv dasturini rejalashtirish va uni amalga oshirish, keyin esa nazorat qilish.

Ontogenetik rivojlanish davomida bola maktabgacha davr oxiriga kelib savod o'rganishga tayyor bo'ladi. Bu davrga kelib og'zaki nutq fonetika, leksika va grammatika jihatidan yetarlicha rivojlangan, natijada bog'lanishli nutq ham shakllangan bo'ladi.

Bundan tashqari, bola fonematik eshitish va idrok malakalariga ega bo'ladi, tovush tahlili va sintezining asosiy operatsiyalarini bajarishni biladi, keyingi til tahlili turlari uchun poydevor shakllangan bo'ladi, shuningdek, ko'rish-makon orientatsiyasi va asosiy grafomotor (yozuv) ko'nikmalari yetarlicha rivojlangan bo'ladi.

- Disleksiya va disgrafiya yuzaga kelishining asosiy sabablariga quyidagilar kiradi:
- Og'zaki nutqning tizimli buzilishlari, ular organik kelib chiqishdagi shikastlanishlar bilan bog'liq;
- Konstitutsional omillar, ya'ni miya yarim sharlarining funksional ixtisoslashuvi bilan bog'liq individual xususiyatlar;
- Ensefalopatik buzilishlar, ular homiladorlik, tug'ruq yoki tug'ruqdan keyingi davrda salbiy omillar ta'siri natijasida yuzaga keladi;
- Salbiy ijtimoiy va muhit omillarining ta'siri.

(Ushbu ma'lumotlar R. Ye. Levina, T. V. Axutina, I. N. Sadovnikova, R. I. Lalaeva, A. N. Kornev va boshqalar tadqiqotlariga asoslanadi.)

Turli ilmiy qarashlardan kelib chiqib, disgrafiyaning tabiatiga oid olimlar ushbu buzilishning turli xil tasniflarini taklif qilganlar (M. B. Xvatsev, O. A. Tokareva, R. I. Lalaeva, A. N. Kornev, T. V. Axutina, A. L. Sirotiyuk). Masalan, O. A. Tokareva, biror analizator faoliyatining ustun buzilishiga asoslanib, disgrafiyaning uch turini ajratgan: akustik, optik va motor disgrafiya.

Akustik disgrafiyada fonemalarning eshituv obrazlari yetarlicha shakllanmagan bo'ladi, ularni farqlash qiyinlashadi, fonematik idrok buziladi. Natijada bolalarda tovush tahlili va sintez operatsiyalarini shakllantirishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Yozuvda bu harflarni aralashtirish, tushirib qoldirish yoki o'xshash tovushlarga mos harflarni almashtirishda namoyon bo'ladi (artikulyatsiya va tovush bo'yicha o'xshash tovushlar).

Optik disgrafiya — bu harflarning ko'rish obrazlari va tasavvurlarining noaniqligi, beqarorligi bilan bog'liq. Shu sababli bola yozuv jarayonida shakli yoki fazoviy belgilariga ko'ra o'xshash harflarni aralashtirib yuboradi (masalan, Sh - Ts - I, B - V va hokazo).

Motor disgrafiya yozuv jarayonidagi harakat muammolari bilan tavsiflanadi, bu esa harakat analizatorining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq. Bola ko'rish, motor obrazlari va harf yozish uchun zarur bo'lgan harakatlar o'rtasida to'g'ri bog'lanish hosil qila olmaydi.

Psixofiziologik yondashuv nuqtai nazaridan M. E. Xvatsev, R. E. Levina va boshqa tadqiqotchilar disgrafiyaning bolaning umumiy nutq rivojlanishidagi yetishmovchiliklar bilan bog'liq holda ko'rib chiqdilar.

M. E. Xvatsev quyidagi turlarni ajratgan:

- akustik agnoziya va fonematik eshituvdagi kamchiliklar asosidagi disgrafiya — bunda tovush tarkibini differensial eshitish buziladi, fonematik tahlil yetishmaydi; natijada harflarni tushirib qoldirish, joyini almashtirish, harflarni o'zgartirish kuzatiladi;
- og'zaki nutqdagi buzilishlar asosidagi disgrafiya — bu noto'g'ri talaffuz natijasida yuzaga keladi va yozuvda aynan shu tovushlarga mos harflarning tushirib qoldirilishi yoki almashtirilishida ifodalanadi;

- talaffuz ritmining buzilishiga asoslangan disgrafiya — bu eshituv-nutq ritmining yetarlicha rivojlanmaganligi bilan bog'liq bo'lib, yozuvda unli tovushlarga, bo'g'inlarga yoki so'z oxirlariga mos harflarning tushirib qoldirilishi orqali namoyon bo'ladi;

- optik disgrafiya — bu harflar va so'zlarning ko'rish obrazlarini shakllantirishdagi buzilishlar bilan bog'liq (bu tur literal va verbal optik disgrafiyaga bo'linadi). Literal optik disgrafiyada alohida harflar buzib yoziladi yoki almashtiriladi, verbal optik disgrafiyada esa alohida harflar to'g'ri yoziladi, biroq so'z yozishda harflar optik xatolar bilan aralashadi;

- motor va sensor afaziyada kuzatiladigan disgrafiya — bu holatlar miya faoliyatidagi tegishli buzilishlar natijasida og'zaki va yozma nutq.

Fonematik eshitish – bu nutq oqimini bo'g'inlarga ajratish va bo'g'in ichidagi tovushlarni davomiyligi, kuchi, balandligi va boshqa parametrlar bo'yicha farqlay olish qobiliyatidir. Fonetik eshitish esa (aytgancha, nafaqat insonda, balki uzoq vaqt davomida inson bilan bir madaniy-tarixiy muhitda yashagan ba'zi hayvonlarda, masalan, uy itlarida ham) intonatsiya, sur'at, mantiqiy urg'u va ovoz tembrini farqlay olish qobiliyatidir.

Fonematik eshitish — bu segmentatsiya jarayoni, fonetik eshitish esa — nadsegment jarayoni hisoblanadi.

Shuningdek, fonetik eshitish uchun asosan o'ng yarim shar mas'ul, aynan unda nutqning intonatsion-melodik tomonini qabul qilish, unli tovushlarni eshitish va tanish, shuningdek bo'g'in ritmini va tovushlarning balandligini (unli hamda undoshlarni) ajratish jarayoni amalga oshadi. T. G. Vizel ishlanmalarida rivojlantirilgan konsepsiyaga ko'ra, nutqni idrok etishning ikki darajasi mavjud: fonetik (so'zlarni takrorlash) — so'zning taxminiy tahlili va fonematik — aniq qayta yaratish, yozish.

Fonematik eshitish tilga yo'naltirilgan bo'lib, milliy o'ziga xosdir (fonemalarning binar belgilarini farqlashga imkon beradi), fonetik eshitish esa nutqqa yo'naltirilgan (emotsiyalarni eshitish, jins, yosh, sog'lik holati, ruhiy holat va kayfiyatni taxmin qilishga imkon beradi). Shunday qilib, fonematik eshitish fonemalarning doimiyligini “ushlaydi”, fonetik eshitish esa ularning realizatsiyasini. Agar bu darajalar bir-biridan ajralib qolsa, bola so'zlarni takrorlashi mumkin, ammo ularning ma'nosini tushunmaydi - bu esa tovushlarni farqlashdagi yo'nalganlik va barqarorlik buzilishi bilan bog'liq.

Bir bo'g'inli so'zlarni tushunish esa qiyin, chunki ritm va konturga tayana olmaydi. An'anaviy tarzda, fonematik eshitishning rivojlanishi tugallangan deb hisoblanadi, agar bola til tizimidagi so'nggi tovushni talaffuz qilishni o'zlashtirsa yoki (agar artikulyatsion qiyinchiliklar bo'lsa) to'g'ri talaffuzni boshqalarning noto'g'ri talaffuzidan aniq farqlay olsa.

Rivojlangan fonetik eshitish asosida bola situatsion nutqni tushunadi, fonematik eshitish asosida esa denotativ ma'noni o'zlashtira oladi.

Fonema — bu madaniyat va tarix rivojlanishining, aniq bir tilning natijasidir, nutq tovushidan farqli o'laroq.

Tilni o'rganayotgan bola uchun fonema — bu tovushli so'z kapsulalarini farqlash funksiyasiga ega bo'lgan ongsiz arxetipdir; bola unga ongsiz ravishda intiladi. Chunki

chaqaloqlarda ongsizlik, jumladan, kollektiv arxetiplar kattalarnikiga qaraganda faolroq bo'ladi, shuning uchun u tabiiy tarzda (normal sharoitda) bunday murakkab tizimni egallashga qodir.

Yozma nutq buzilishlariga ega bolalarda fonematik buzilishlar:

Fonematik buzilishlar disgrafiya va disleksiya kabi yozma nutq va o'qishdagi qiyinchiliklarga ega bolalarda nutqiy muammolarning markaziy o'rnini egallaydi. Ular nutq tovushlarini qabul qilish, farqlash, tahlil va sintez qilish jarayonlarining yetarlicha shakllanmaganligi bilan namoyon bo'ladi. Yozish va o'qish tovushni harf bilan bog'lash qobiliyatiga asoslanganligi sababli, fonematik idrokda har qanday qiyinchiliklar yozma va o'qishdagi barqaror xatolarga olib keladi.

Fonematik idrokning yetarlicha rivojlanmaganligi:

Eng ko'p uchraydigan holatlardan biri – bu fonematik idrokning rivojlanmaganligi, ya'ni o'xshash tovushlarni farqlashdagi qiyinchilikdir. Bola b–p, d–t, z–s, j–sh kabi juft undoshlardagi tovushlarni ajrata olmaydi. Og'zaki nutqda bu tovushlarni almashtirish yoki noto'g'ri talaffuz qilish orqali namoyon bo'ladi, yozma nutqda esa harflarning aralashuvi yoki almashtirilishi bilan ifodalanadi.

Fonematik tahlil va sintezdagi buzilishlar

Yozma nutqda muammosi bor bolalarda fonematik tahlilni bajarish — so'zni tovushlarga ajratish ko'nikmasi rivojlanmagan bo'ladi. Bola so'zdagi tovushlar sonini yoki tartibini aniqlashda qiynaladi, tovushlarni tushirib qoldiradi yoki qo'shimcha tovush qo'shadi. Fonematik sintezning buzilishi esa aksincha, bola alohida tovushlarni birlashtirib, butun so'z hosil qila olmaydi. Bunday qiyinchiliklar yozishda maxsus xatolarga sabab bo'ladi: harflarni tushirib qoldirish, joyini almashtirish, so'z qismlarini birlashtirib yoki ajratib yozish.

Fonematik tasavvurlarning beqarorligi:

Ba'zi bolalarda to'g'ri talaffuz mavjud bo'lsa ham, ular so'zlarning aniq tovush obrazini esda saqlay olmaydilar. Natijada bir so'zni har safar turlicha aytish yoki yozish holatlari kuzatiladi. Ushbu holat eshituv nutq xotirasining zaifligi va o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlarining yetarli rivojlanmaganligi bilan bog'liq.

Tovushlarning akustik va artikulyatsion belgilari bo'yicha aralashuvi:

Bunday bolalarda o'xshash tovushlarning, masalan, jarangli va jarangsiz, qattiq va yumshoq undoshlarga oid aralashish holatlari tez-tez uchraydi. Natijada bola og'zaki nutqda ham, yozuvda ham xatolarga yo'l qo'yadi, bu esa nutqning aniqligi va ifodadorligini pasaytiradi.

Eshituv nutq xotirasi va fonematik idrok tezligining pasayishi:

Ko'plab bolalarda eshituv nutq xotirasi hajmi cheklangan bo'ladi, shuningdek, tovushli ma'lumotni qayta ishlash tezligi past bo'ladi. Bola uzun so'zlardagi tovushlar ketma-ketligini eslab qololmaydi, bo'g'in tuzilmasini yo'qotadi, bu esa o'qish va yozish ko'nikmalarini o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Shunday qilib, fonematik eshitish bilan disgrafiya o'rtasidagi bog'liqlik oddiy emas, balki asosiy hisoblanadi. Fonematik eshitish - nutq tovushlarini tahlil qilish va farqlash

qobiliyati sifatida - yozuvni o'zlashtirishning poydevori bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asosiy mexanizm buzilganda, yozish jarayoni tabiiy ravishda izdan chiqadi va bu turli xil disgrafiya turlariga xos bo'lgan o'ziga xos xatolarda namoyon bo'ladi. Bu bog'liqlikni tushunish disgrafiyaning tashqi ko'rinishlari - barqaror "ahmoqona" xatolar - ortida uning chuqur sabablarini ko'rish imkonini beradi. Demak, disgrafiya e'tiborsizlik, diqqat tarqoqligi yoki dangasalik natijasi emas, balki til tizimining asosiy komponentlari shakllanmaganligining bevosita aksidir. Bu komponentlar orasida fonematik eshitish markaziy o'rinni egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M. Yu. Ayupova, «LOGOPEDIYA» . Toshkent 2019
2. Т. Б. Филичева, «Логопедия: теория и практика». Москва 2023
3. Визель Т. «Основы нейропсихологии: теория и практика». Москва 2024
4. Лынская М. И. «Дифференциальная диагностика речевых нарушений». Москва 2024